

“KAPITALBANK” ATB AKSIYADORLARIGA
XABARNOMA

“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki Sizga, bank Kengashining 2019-yil 30-dekabrda qaroriga muvofiq 2020-yilning 27-yanvariga “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish belgilanganligini ma’lum qiladi. “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining quyidagi kun tartibi tasdiqlangan:

Kun tartibi:

1. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida.
2. “Kapitalbank” ATB boshqaruv raisi vakolatlari muddatidan oldin tugatilishi to‘g‘risidagi “Kapitalbank” ATB Kengashining qarorini tasdiqlash to‘g‘risida.
3. “Kapitalbank” ATB Kengashi a’zosining vakolatlari muddatidan oldin tugatilishi to‘g‘risida.
4. “Kapitalbank” ATB Boshqaruv Raisi tayinlanishi to‘g‘risida.
5. “Kapitalbank” ATB tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida.

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlar ro‘yxati, bank aksiyadorlarining 2020-yil 21-yanvar holatidagi reyestriga muvofiq tuziladi.

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi quyidagi manzilda soat 11-00 da bo‘lib o‘tadi:

Toshkent shahri, Mahtumquli ko‘chasi, 1, “Kapitalbank” ATB Yashnobod filiali binosida.

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish soat 10-30 dan boshlanadi.

Yig‘ilishda shaxsan ishtirok etishingizni yoki notarial tasdiqlangan ishonchnoma bilan vakil yuborishingizni so‘raymiz.

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi uchun tayyorlangan materiallar bilan quyidagi manzilda tanishishingiz mumkin bo‘ladi:

Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7, “Kapitalbank” ATB bosh ofisi, 3-qavat, 36-xona.

Ma’lumot uchun telefon raqami: +998(78) 148-00-05 (ichki - 11262).